

**MAKTLABLARDA CHILANGARLIK USTAXONALARINI TASHKIL QILISH,  
HAMDA O'QUVCHILARGA METAL VA PLASTMASSA MATERIALLARNI  
QIQISHNI VA KESISHNI O'RGATISHNI TASHKIL QILISH**

**Ismailova Momogul Hamraboy qizi**

Urganch davlat pedagogika instituti,  
Texnologik ta'lif kafedrasi o'qituvchisi

**Otanazarova Momojon Habilullo qizi,**

Urganch davlar pedagogika instituti  
Texnologik ta'lif 3-kurs talabasi

**Qurbanova Oygul Baxodir qizi,**

Urganch davlar pedagogika instituti,  
Texnologik ta'lif 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktablarda chilangarlik ustaxonalarini tashkil qilishning ahamiyati to'g'risida hamda, chilangarlik ustaxonalarida o'quvchilarga metall hamda plastmassa materiallarni chilangarlik arrasi kesishni, hamda qirqishni o'rgatishning ahamiyati to'g'risida malumotlar keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о важности организацииученических мастерских в школах, а также о важности обучения учащихся резке и распиловке металлических и пластиковых материалов слесарной пилой в слесарных мастерских.

**Annotation:** This article provides information on the importance of organising apprenticeship workshops in schools and on the importance of teaching students to cut and shape metal and plastic materials with a locksmith's saw in locksmith workshops.

**Kalit so'zlar:** qobiliyat, tafakkur, ijodkorlik, uskuna, dastgoh qurilma, avtokorxona, avtoservis.

**Ключевые слова:** способности, мышление, креативность, оборудование, мастерская, автопредприятие, автосервис.

**Keywords:** ability, thinking, creativity, equipment, workshop, auto enterprise, car service.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lif tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, inspeksiya hamda tegishli ta'lif vazirliklariga maktabgacha, umumiyl o'rta, professional, oliy ta'lif o'quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta'minlash bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Bunda maktabgacha, umumiyl o'rta, professional va oliy ta'lif fan dasturlari uzviyilagini ta'minlash va ta'lif jarayoniga yangi o'quv dasturlari va rejalarini joriy etish ko'zda tutilgan. Bugungi kunda mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan tegishli yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Oldimizda ta'lif mazmunini belgilashga xizmat qiluvchi, uzluksiz ta'lif tizimining me'yoriy hujjatlari, o'quv dasturlarining uzviyilagini tahlil qilish, ularning har bir fan bo'yicha bosqichlar orasida takroriyligining

Date: 17<sup>th</sup> April-2025

oldini olish bo'yicha ishlar hamda uzviyligi ta'minlangan fan dasturlari asosida darsliklar mazmunini ham muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi.

O'quvchilarni ma'naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg'unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o'stirish, ijodkorlikni rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tatbiq etishga o'rgatish amaliy fanlar blok -moduli orqali amalgalashiriladi.

Mavjud oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiya fani yo'nalishida o'qituvchi pedagog-kadrlarni tayyorlash sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi texnologiya fanini o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos ravishda yangilashni taqazo etmoqda. Shu bilan bir qatorda texnologiya fanini o'qitishda, ya'ni, amaliy mashg'ulotlarni olib borishda ancha yillardn beri yechimini topmayotgan muammolar hali ham mavjud.

Texnologiya o'quv fani o'quvchilarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb -hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, hunarmandchilik asoslari, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari, elekrotexnika ishlari, elektronika asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi, kasb-hunarga yo'llash bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirishni ko'zda tutgan. O'quv predmetini o'qitish orqali o'quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.



Date: 17<sup>th</sup> April-2025

Texnologiya fanini rivojlantirish uchun ta'limning barcha bosqichlarida texnologiya fanini o'qitish tizimini yaratish, texnologiya fanining ilmiy metodik ta'minotini rivojlantirish, texnologiya fanining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, texnologiya ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan o'zaro bog'liligi va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish, fan doirasida o'rgatiladigan va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun istiqbolli deb tanlangan kasblar hamda mutaxassislarini tayyorlashning tayanch bosqichi sifatida xizmat qilishi, fanning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish lozim bo'ladi

Texnologiya fani moddiy-texnik bazasini mustahkamlash zarur. Buning uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yangi turdag'i zamonaviy o'quv ishlab chiqarish ustaxonalarini (laboratoriya) barpo etish va muqaddam qurilgan o'quv ishlab chiqarish ustaxonalarini zamonaviy ustaxona (laboratoriya) namunasiga moslashtirish, zamonaviy mebel, jihozlar, asbob-uskuna va moslamalar, o'quv-uslubiy materiallar, kompyuter, interaktiv doska, planshet va multimedia texnikalari, internet, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash, ularni o'z yaqtida yangilab borish, ustaxonalarda (laboratoriya) o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar uchun kerakli xom ashyo materiallarini davlat budgeti, homiy tashkilotlar va ta'lim muassasasining budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan ta'minlashni yo'lga qo'yish kerak. O'quv ustaxonalari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- uskunalaming normal o'rnatilishi. joylashtirilishi va ishlashi uchun sharoitlarga (maydon, binoning qavati, balandligi, texnologik potokni hisobga olgan holda rejalahtirish va hokazo) ega bo'lishi;

- mehnat xavfsizligi, sanitariya va gigiena talablariga muvofiq bo'lishi (yong'in va portlash xavfi bo'lgan bo'limlarni, shuningdek, chang va gaz chiqadigan bo'linmalarni asosiy binodan ajratish;

- ko'tarma-transport qurilmalarining, yong'in paytida chiqish yo'llari va o't o'chirish vositalarining mavjudligi, normal va sun'iy yoritkichlar, shamollatish qurilmalarining mavjudligi;

- binoda normal ish haroratining ta'minlanishi va hokazolar);

- o'quvchilar ish o'mini jihozlashning asosi yakka tartibda foydalaniladigan uskuna, ya'ni o'quvchilar o'z kasblari uchun xos bo'lgan o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajaradigan uskunadir.

Bunga nisbatan asosiy o'quv-texnika talablari: ularning kasbga mosligi, konstruksiyasining zamonaviyligi, universalligi, boshqarishning nisbatan osonligi, ixchamligi, foydalanish va xizmat ko'rsatishda qulayligi, ishda xavfsizligi.

Bu talablarning me'yorlari tegishli me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilgan bo'lib, turli tarmoqlar uchun turlichadir:

Date: 17<sup>th</sup> April-2025

a. Ishlab chiqarish estetikasi talablariga - binoning rangi va bo‘yoq turlari (shifti oq, devorlari och sariq bo‘lishi);

b. bezaklar va mebel g’ilofi hamda devorlardagi bezaklar uslubining uyg’unligi, pol va derazalarni yaxshilab tozalash imkoniyatini mavjudligi va hokazo.

O‘quv ustaxonasining jihozlanishini shartli ravishda uch qismga bo‘lish mumkin: o‘quvchilarning ish o‘rni hamda foydalanilgan uskunalar va ustozning ish o‘rni.

O‘quvchining ish o‘rni o‘quv dasturi talablariga muvofiq ishlab chiqish ta’limi uchun zarur uskunalar, asboblar, priborlar, moslamalar bilan ta’milnadi. Ish xususiyatiga, ta’lim davriga, o‘quv-ishlab chiqarish mehnatining tashkil etilish usuliga qarab o‘quvchilarning ish o‘rinlari yakka tartibda va brigadalarga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin.

O‘quv ustaxonasida o‘quvchilar ish o‘rnini rejalshtirish va joylashtirish ularning uskunalar bilan jihozlanishiga, o‘quv ustaxonasining tipik mahsulotiga, derazalar qanday o‘ratilganligiga, binoning hajmi va shakliga bog’liq. Ish o‘rinlari uskunalarini joylashtirish normativlari turli kasblar uchun bo‘lib, ular vazirliklar va idoralar tomonidan tasdiqlangan. Ishlab chiqarish sexlari va uchastkalari normativlariga muvofiqlashtirilgan. Shu bilan birga, mo‘ljal uchun dastgoh va boshqa yirik uskunalarini o‘quv ustaxonasida joylashtirishning o‘rtacha quyidagi me’yorlaridan foydalanish mumkin: devor va ustundan dastgoh, qurilma, agregatning yon yoki orqa tomoni o‘rtasidagi masofa kamida 0,5 m; uskunalarning qatorlari orasidagi yo‘lning kengligi kamida 1,5 m; bir qatordagi dastgohlar, qurilmalar, agregatlarning yon tomonlari o‘rtasidagi masofa kamida 0,5 m; markaziy yo‘lak kengligi kamida 2m. Uskunalar deraza yasayotgan o‘quvchining chap yoki old tomonida bo‘ladi.

O‘quvchilarning ish o‘rinlariga o‘rnataladigan uskunalardan, ya’ni yakka tartibda foydalanadigan uskunalardan tashqari hamma foydalanadigan uskunalar bilan ham jihozlanadi. Bunday uskunalarning turlari va miqdori kasb xususiyatiga, o‘quv ustaxonasining mahsulotiga, o‘quv yurtida o‘rganilayotgan kasblarga, o‘quv yurtida yordamchi xizmat xonalarining mavjudligiga hamda boshqa bir qator omillarga bog’liq. Bunday ishlarrning asosiy vazifasi ishlab chiqarish ta’limi dasturining to‘la va sifatli bajarilishini ta’minlashdir.

**Xulosa.** Yuqorida ko‘rsatilgan talablar to‘liq amalga oshirilsa, o‘quvchilar texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatda qo‘llay oladigan, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan, mehnat bozorida zarur bo‘ladigan kompetensiyalari shakllangan, texnologik savodxonlik,tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, o‘z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta oladigan va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanadilar.Texnologiya fani ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini harakatlantiruvchi kuch, O‘zbekiston iqtisodiyotining tayanchi hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasidagi globallashuv, ijtimoiy madaniy o‘zgarishlar, kadrlar tayyorlashda sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, texnologiya fani maqomi va nufuzini oshirish,

Date: 17<sup>th</sup> April-2025

o‘quvchilar o‘rtasida ijodkorlik muhitini shakllantirish, iqtidorli o‘quvchi-yoshlarni aniqlash, respublika miqyosida intellektual yetuk o‘quvchi-yoshlar seleksiyasini tashkil etish tizimini shakllantirish orqali oshirish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 2017-yil 7-fevralda PF-4947-sonli farmoni.
2. 10.N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov va boshqalar. Mehnat ta’limi o’qitish metodikasi. O’quv qo’llanma. T. 2009.
3. 17.Sharipov Sh. S. Vorobyov A. I. Muslimov N. A. Ismoilova M. Kasb ta’limi pedagogikasi. Toshkent. 2005.
4. 12. Ishmuxamedov. R. J. Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T. “Nixol” nashriyoti. 2016